

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK 664.64.016.8

Kaimov Mirjalol

**Samarqand viloyatidagi umumiy ovqatlanish korxonalarida
innovatsion faoliyatni rivojlantirish omillarini aniqlash
orqali korxonalarining samaradorligini oshirish (Samarqand
viloyati «Urgut shaxri Urgut Fayz Savdo» MCHJ
korxonasi misolida).**

5A610101 - Xizmatlar sohasi (restoran ishi)

Magistr

akademik darajasini olish uchun

yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar: t.f.d., professor J.M. Kurbonov

SAMARQAND -2020

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1 Innovatsiyaning mohiyati va uning O‘zbekistonda rivojlantirilishi.....	9
2. Samarqand viloyatida umumiy ovqatlanish korxonalarini modernizatsiyalashning innovatsion holatini tadqiqoti.....	16
3. Samarqand viloyati Urgut shahar “Urgut Fayz Savdo” MCHJ umumiy ovqatlanish korxonasini modernizatsiya innovatsion holatini baholash	24
3.1. “Urgut Fayz Savdo” MCHJga qarashli “Baxor” savdo markazidagi umumiy ovqatlanish oshxonasi moddiy texnik bazasining holati.....	26
3.2. Korxonada innovatsion modernizatsiyalashda iqtisodiy samaradorlikni hisoblash ning takomillashtirilgan metodi.....	32
3.3. “Urgut Fayz Savdo” MCHJga qarashli “Baxor” savdo markazidagi umumiy ovqatlanish oshxonasi texnikaviy - iqtisodiy modernizatsiyasining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash	36
3.4. “Urgut Fayz Savdo” MCHJga qarashli “Baxor” savdo markazidagi umumiy ovqatlanish oshxonasi salqinlovchi jihoz larni modernizatsiyalash bilan samaradorligini hisoblash	41
3.5. “Urgut Fayz Savdo” MCHJga qarashli “Baxor” savdo markazidagi «Markaziy univermagda» ovqatlanish bufetini tashkil etish va uning samaradorligini hisoblash	44
4. “Urgut Fayz Savdo” MCHJga qarashli “Baxor” savdo markazi texnikaviy holatini innovatsion yaxshilash bilan samaradorligini oshirish.....	48
4.1. Univermag savdo korxonasining elektron texnika holati.....	48
4.2. Univermagdagi mebellar va inventarlarning yangilanishi va savdo samaradorligini oshirish chora tadbirlari.....	53
5. “Urgut Fayz Savdo” MCHJ korxonasida xayot faoliyati xafsizligi.....	59
5.1. Mexnat muxofozasi qonuniga roiya etishni taminlash.....	59
5.2. Savdo korxonalarida elektr va yong’in xafsizligini taminlanganligi....	62
Xulosa va takliflar.....	65
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	69

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: «Biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-marifat va innovatsiya bilan erisha olamiz» –deb takidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev Oliy Majlisga Murojatnomasida¹.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti jadal sura’larda rivojlanib bormokda. Jumladan, sanoatning 12 ta etakchi tarmog‘ida modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish dasturlari jadal amalga oshirilmoqda. Natijada o‘tgan yili iqtisodiy o‘sish 5,6 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, eksport – 28 foizga ko‘paydi. Oltin-valyuta zaxiralarimiz 2019 yil davomida 2,2 milliard dollarga ortib, 28,6 milliard dollarga etdi. Ayniqsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 4,2 milliard dollarni tashkil etib, 2018 yilga nisbatan 3,1 milliard dollarga yoki 3,7 barobar o‘sdi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Buning hisobidan o‘tgan yili soliq to‘lovchilar ixtiyorida 2 trillion so‘m qoldi. Joriy yilda bu raqam 11 trillion so‘mni tashkil etishi kutilmoqda. Bir yilda tadbirkorlar ixtiyorida shuncha mablag‘ qolishi, albatta, ularga o‘z bizneslarini innovatsion rivojlantirish uchun juda katta qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Ma‘lumki, Samarqand viloyati turistik imkoniyatlari bilan jaxonda mashxur hisoblanadi. SHuning uchun ham turizmning bizda jadal rivojlantirilishi ayniksa mexmonxona, umumiy ovqatlanish va boshqa viloyatda xizmat ko‘rsatish soxasidagi barcha korxonalarini intensiv rivojlanishga olib keladi.

Prezidentimizning murojatnomasiga asosan, 86 ta davlat fuqarolariga vizasiz va 57 ta davlat fuqarolariga soddalashtirilgan viza rejimi joriy etilishi natijasida o‘tgan yili yurtimizga 6,7 million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurdi. Bu 2016 yilga nisbatan 4,7 million nafarga yoki 3,3 barobar ko‘p mexmonlar kelishi kutilmokda. yurtimizda, turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga aylantirish ustuvor vazifasi bo‘lib qoladi., turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga

¹ <https://zamin.uz/uzbekiston/66011-prezident-uzbekistonni-jadal-islohotlar-ilm-marifat-va-innovatsiya-bilan-rivojlangan-mamlakatga-aylantira-olamiz.html>

aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo‘lib qoladi. Hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri – joriy yilda yurtimizga keladigan turistlar sonini 7,5 millionga etkazishdan iborat.

Xuddi shuningdek, murojatnoma asosida tuzilgan O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi qabul qilindi. Bunda, iqtisodiyotni rivojlantirish yuqori texnologiyalar va eksportga yo‘naltirilgani, sanoat industriyasiga barqaror o‘tish, zamonaviy infratuzilmaga ega bo‘lish, erkin moliyaviy bozorga o‘tish, innovatsiyalar va texnologiyalarni barcha sohada rivojlantirish, fan va texnologiyalarni joriy etish va boshqalar ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 4 martdagi PF-4707-son «2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy qayta o‘zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni ta’minlash bo‘yicha tadbirlar dasturi haqida»gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 29 avgustdagi 251-sonli «O‘zbekiston Respublikasi aholisini 2015-2020 yillarda sifatli oziq-ovqat bilan ta’minlash bo‘yicha tadbirlar konsepsiyasi va kompleksini tasdiqlash to‘g‘risida»gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

YUqorida keltirilganlardan xulosa qilgan xolda, tanlangan mavzu o‘ta dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning ob’ekti va predmetining belgilanishi: Magistirlilik dissertatsiyasida, Samarqand viloyatidagi umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish omillarini aniqlash orqali korxonalarining samaradorligini oshirish va bu bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida ilmiy izlanishlar olib boriladi.

Jumladan, Samarqand viloyati «Urgut shaxri Urgut Fayz Savdo» MCHJ korxonasi innovatsion faoliyatini tahlil etib ilmiy tadqiqotlar olib borib, uning kelajakdagi innovatsion rivojlanishini belgilash. Tadqiqot davomida ushbu mavzu

bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish va tahlilini olib borish, izlanish metodlari orqali izlanishlar olib borish, mavjud korxonadagi savdo, ovqatlanish xizmat ko'rsatishda zamonaviy jihoz larni qo'llash bo'yicha hisoblar olib borish, yangi-innovatsion elektron uskunalarni qo'llash bo'yicha takliflar kiritish va ularning korxonada ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishini ko'rsatib berish va boshqalar olib boriladi.

Tadqiqot maqsadi: Samarqand viloyatidagi umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish omillarini aniqlash, Samarqand viloyati «Urgut shaxri Urgut Fayz Savdo» MCHJ korxonasi misolida innovatsion yangilanishi bilan korxonaning samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Magistirlilik dissertatsiyasi maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi **vazifalar** qo'yilgan:

- Innovatsion texnologiyalar mohiyati va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni;

- Samarqand viloyatidagi umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish omillarini aniqlash;

- Urgut shahar “Urgut Fayz Savdo” MCHJ ” qarashli “Baxor” savdo markazi umumiy ovqatlanish oshxonasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish omillarini aniqlash;

- Urgut Fayz Savdo” MCHJga qarashli “Baxor” savdo markazlari ovqatlanish texnikaviy holatini innovatsion yangilash bilan samaradorligini oshirish.

- Urgut Fayz Savdo” MCHJga qarashli “Baxor” savdo markazida savdo va ovqatlanish elektron vositalarini yangilash bilan samaradorligini oshirilishi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:

“Urgut Fayz Savdo” MCHJga qarashli “Baxor” savdo va ovqatlanish markazi elektron vositalarini va jihoz larini innovatsion yangilash bilan samaradorligini oshirish.

Markazdagi ovqatlanish oshxonasi va bufetining jihozlarini zamonaviy yuqori unumdorli jihozlarini yangilash bilan iste'molchilarga xizmat ko'rsatish

jarayonini jadallashtirish va sanitariya gigiena holatini yaxshilash bilan samaradorligini yaxshilash.

Xuddi shuningdek, markazdagi savdo jarayonlarida innovatsion elektron vositalari: kassa aparatlari, elektron tarozilar, salqinlovchi apparatlar va boshqa elektron vositalarni zamonaviy vositalar bilan yangilash bilan savdo jaryonlarining samaradorligi oshiriladi.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili: dissertatsiya ishini bajarishda O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident SH.M.Mirziyoevning Farmonlari, Qarorlari va asarlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, me'yoriy hujjatlari. shuningdek, tadqiqot ishida mamlakatimiz va chet ellik olimlarning mavzu doirasidagi ilmiy ishlari, tavsiyalari va ularda qo'llanilgan metodologik tamoyillari asos qilib olindi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini va savdoni rivojlantirish, texnik-texnologik takomillashtirish, samaradorligini oshirish xorijiy olimlar: S.M.Yampolskiy, S.G.Galuza², V.I.Terexin³, V.I.SHalun⁴, YU.A.Lvov⁵, P.Samuelson⁶, K.A.Raitskiy⁷, T.V.Emelyanova⁸, O.P.Efimova⁹ va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz olimlari tomonidan ham ushbu mavzu bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borildi. Xususan, M.Q.Pardaev¹⁰, I.Ivatov¹¹, M.M.Muxammedov¹², I.S.Tuxliev¹³,

² Ямпольский С.М., Галуза С.Г.Экономические проблемы управления научно техническим прогрессом.Киев:Наук.думка,1976.С.364

³Терехин В.И. Повышение эффективности производства новой техники.Москва "Экономика"1987.-С.8-50

⁴ Шалун В.И. Общественное питание-на новый технический уровень.Москва «Экономика» 1987. С.24-84

⁵Львов Ю.А."Основы экономики и организации бизнеса".-С.Петербург – МГП "ФОРМИКА".-1992 -384с

⁶Самуэльсон П."Экономика"1 том .М.:НПО "Алган" ВНИСЧИ 1992 г – 335 стр.

⁷ Раицкий К.А.Экономика предприятия.Учебник.-М.:ИВЦ «Маркетинг».2003.с.683

⁸Емельянова Т.В. Экономика общественного питания гМинск .Высшая школа.2003

⁹Ефимова О.П.Экономика общественного питания.Минск.Новое знание,2008.с.348

¹⁰ Пардаев М.Қ,Исроилов Ж.И,Ғаппаров А.Қ.Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари.Рисола.Самарқанд."Зарафшон",2009.ғ 66 б.

¹¹Иватов И.Ресторанное хозяйства в туристической сфере.Учебное пособие. - Т.:ТГЭУ,1998. Ғ с131.,Савдода маркетинг фаолияти.Монография.Т.:ТДИУ,2004.

¹²Мухаммедов М.М. и др.Экономика торговли.Самарқанд.1998.с.282

¹³Тухлиев И.С.ва бошқалар.Туризмни режалаштириш.Дарслик.Т.: "Иқтисод - молия", 2010- 264 б.,Туризм асослари.Ўқув кўланма.Самарқанд,2010

D.X.Aslanova¹⁴, O.A.Abdullaev¹⁵, B.A.Abdukarimov¹⁶, T.S.Sharipov¹⁷ kabi etakchi olimlar shug‘ullanib o‘z qarashlarini ilmiy adabiyotlarida aks ettirdilar.

Ovqatlanish savdo korxonalarida mahsulotlar sifatini oshirish, korxonalar samaradorligini oshirish, raqobat bardoshligini yaratish masalalari bo‘yicha hozirgi vaqtda mamlakatimizda va chet ellarda jadal sur‘atlar bilan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xuddi shuningdek, ushbu mavzu bo‘yicha o‘zimizda va chet elda olib borilgan tadqiqotlar o‘z ko‘lami bilan keng bo‘lishiga qaramay, ularda aynan, korxonadagi savdo va ovqatlanish ishlab chiqariladigan mahsulotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha olib borilgan ishlar bizningcha etarli darajada emas.

Tadqiqotda qo‘llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi: magistrlik dissertatsiyasini bajarishda ish doirasidagi tadqiqotlar davomida statistika va iqtisodiy tahlilning qiyoslash, anketa so‘rovi o‘tkazish, guruhlash, tanlab kuzatish, korxonalar samaradorligini hisoblash kabi bir qator usullaridan foydalanildi

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: tadqiqotning nazariy ahamiyati innovatsion texnologiyalar mohiyati va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni, umumiy ovqatlanish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish omillarini aniqlash bilan belgilanadi.

Urgut shahar “Urgut Fayz Savdo” MCHJ” qarashli “Baxor” savdo markazi umumiy ovqatlanish oshxonasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish omillarini aniqlash.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa O‘zbekistonda, xususan Urgut shahar “Urgut Fayz Savdo” MCHJga qarashli “Baxor” savdo markazlari ovqatlanish va

¹⁴ Aslanova D.X.Трудоёмкость продукции общественного питания и резервы её снижения:автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук.Ф Киев .1992-с.20.

¹⁵ Абдуллаев Ё.А. Статистиканинг умумий назарияси.Дарелик .Т.:”Ўқитувчи”, 1993-240б.Бозор иқтисодиёти асослари:Т.:”Меҳнат”, 1997- 432б., Макроиқтисодий статистика.-Т.:”Меҳнат”,1998.-382б. Статистика назарияси.- Т.:”Меҳнат”,2000.-448б., Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари.-Т.:”Меҳнат”, 2002.-215б.

¹⁶ Абдукаримов Б.А.Ички савдо иқтисодиёти.-Т.:”Фан ва технолгия”,2 том 2008.-224б.

¹⁷ Шарипов Т.С.Умумий овқатланиш корхоналари самарадорлигини оширишнинг ташкилий иқтисодий механизмларини такомиллаштириш (Самарқанд вилояти мисолида):иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати.Самарқанд 2010й

savdo texnikaviy holatini innovatsion yangilash bilan samaradorligini oshirish yullarini aniqlash mumkinligi bilan belgilanadi..

Tadqiqotning ilmiy yangiligi .Innovatsion texnologiyalar mohiyati va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni o'rganilib uning iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari belgilandi;

▪ Samarqand viloyatidagi umumiy ovqatlanish savdo korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish omillari: ularni rivojlantiruvchi va to'siq bo'luvchi omillari aniqlandi;

▪ Urgut shahar "Urgut Fayz Savdo" MCHJ " qarashli savdo korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish omillari: ularni rivojlantiruvchi va to'siq bo'luvchi omillari aniqlandi;

▪ Urgut Fayz Savdo" MCHJga qarashli "Baxor" savdo markazidagi umumiy ovqatlanish oshxonasi jihozlari va savdo elektron vositalarini yangilash bilan samaradorligi oshirildi;

▪ Korxonalarining iqtisodiy samaradorligini hisoblash metodi takomillashtirildi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi: dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan. Ishning umumiy hajmi 73 betdan iborat.

1. Innovatsiyaning mohiyati va uning O‘zbekistonda rivojlantirilishi.

Innovatsion texnologiyalar mohiyati – karitalni yo‘naltirishning yangi sohalarini izlash, mavjud mahsulotlar oldi sottitakomillashtirish va yangilarini yaratish, shaxsiy ustuvorlikni rivojlantirish, daromad olish uchun turli imkoniyatlardan samarali foydalanish deb ta‘riflash mumkin. Shu bilan birga tadbirkorlik bozor uchun yangi mahsulot oldi sotti, faoliyat sohasining o‘zgartirilishi yoki yangisi korxonaga yoki tarmoq barro etilishida majburiy foydalanish deb tavsiflanadi.

Innovatsiya tushunchasini hamda innovatsion faoliyatning mazmunini aniqlashtirib olish. Ta‘kidlab o‘tganimizdek, hozirgi raytda “innovatsiya” tushunchasini aniqlab beruvchi, shu jumladan, dunyo mamlakatlari qonunchiligida turli xildagi izohlar mavjud. Xususan, Rossiya Federatsiyasining innovatsiyalar to‘g‘risidagi qonunida innovatsiya amaldagi qonunchilikka ko‘ra intellektual mulk sifatida tan olingan, ilmiy, ilmiy-tadqiqot yoki ilmiy-texnik faoliyat natijasi sifatida tavsiflangan. Masalan, Rossiya Federatsiyasining amaldagi rasmiy statistikasi innovatsiyaga “innovatsiya bu – innovatsion faoliyatning rirovard natijasi sifatida bozorga chiqarilgan yangi yoki mukammallashtirilgan mahsulot yoki xizmatlar hamda amaliyotda foydalanishga joriy etilgan yangi yoki mukammallashtirilgan texnologik jarayon yoki oldi sotti (xizmat) usullaridir”, deya ta‘rif berilgan. Innovatsiya faqatgina bozorga chiqarilganda yoki oldi sotti jarayoniga qabul qilingandagina namoyon bo‘ladi.

Modernizatsiya holati birinchi navbatda korxonaning innovatsion faoliyatidan kelib chiqadi. CHunki, uning natijasida olinadigan ishlab chiqarish mahsuloti (xizmat), uning rivojlanganlik darajasini belgilaydi.

Ma‘lumki, “innovatsiya” (ingl.innovation yangilik kiritish, novatorlik) deganda modernizatsiyaning bosh omili yangi jarayon, mahsulot yoki xizmatning “yangiligiga berilgan investitsiya” natijasida amaliyotga tadbig‘ini tushunamiz. SHuning uchun, modernizatsiyalashdagidek innovatsion jarayonning (faoliyati) rivojlanishiga ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, intellektual va texnik - texnologik va boshqa omillar ta‘sir etadi.

Xar qanday mamlakatning rivojlanganlik darajasi, undagi intellektual mulkning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. SHuning uchun, barcha mamlakatlar o‘z intellektual mulklarini rivojlanishi borasida, ayniqsa uning davlatda va butun dunyoda himoyalinishiga katta e’tibor beradilar.

Agar biz insonning aqlini, tafakkurini, bilimini va ilmini, zakovatini, qobiliyatini va h.k. uning intellekti desak, unda ana shular yordamida yaratilgan, ijod etgan mahsulot yoki mulk uning intellektual mulki deb yuritiladi.

Intellektual mulkning asosiy manbai bo‘lib insonning ilmiy-tadqiqot faoliyati, inson yashab to‘rgan jamiyatning bu faoliyatga, ayniqsa, bilimiga, ilmiga, umuman fanga texnikaviy rivojlanishga bo‘lgan munosabati va mamlakatning ilmiy va texnologik salohiyati hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda intellektual mulkning yaratilishi va huquqiy muhofazasi bo‘yicha ishlarining tashkillashtirish dunyo mamlakatlarida davlat miqyosida – muhim davlat ishlari sifatida olib borilayapti. CHunki, har qanday mamlakatning rivojlanish darajasi, undagi intellektual mulk bo‘yicha ishlarning qanday darajada olib borilishiga, uning yangi texnika-texnologiyalar yaratilishiga, jamiyat va tabiat qonunlarini o‘rganib, hayotga tadbiiq etganligiga bog‘liqdir. SHuning uchun ham, er yuzidagi minglab ilmiy muassasa va korxonalarda, muntazam ravishda milionlab ilmiy tadqiqot natijalari olinib, tahlil etilib inson hayoti – amaliyotiga tadbiiq etib – bashariyat sivilizatsiyasining rivojlanishiga hissa qo‘shib kelmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston ham o‘zining rivojlangan intellektual mulki material bazasi keng ilmiy fondi, ilmiy ishlari dunyo miqyosida tan olingan yuqori malakaviy ilmiy kadrlari bilan Markaziy Osiyodagi katta salohiyatga ega bo‘lgan ilmiy markaz hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi ilmiy-izlanish kompleksini jami sohalar profili bo‘yicha kuplab akademik, oliy ta’lim tashkilotlari tashkil topgan.

Bunda ilmiy-izlanish institutlari, oliy o‘quv yurtlari ilmiy-izlanish bo‘limlari, loyiha-konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va eksperimental korxonalar, axborot-hisob markazlarimavjud.

O‘zbekiston o‘zining fan va texnologiyalari rivojlanishini dunyo

hamjamiyati bilan qadamma-qadam hamkorlikda, o‘zaro kelishuvida olib bormoqda. Hozirda, O‘zbekiston Rio Deklaratsiyasiga, BMTning iqlim o‘zgarishi, biologik turli xillik, sahrolanishga qarshi konvensiyasiga, ozon qatlamini himoyalash Vena konvensiyasiga, xavfli chiqindilarning tashilishi va chiqarilishini nazorat qilish Bazen konvensiyasiga qo‘shilib uzaro munosabatlarni ratifikatsiya qilgan. Bundan tashqari, yana 12 dan ko‘p atrof-muhitni saqlash bo‘yicha xalqaro bitimlar va hamkorlik shartnomalariga qo‘shilgan. Masalan: “O‘zbekiston Respublikasining 1968 yil 8 oktyabrda Lokarnoda imzolagan Sanoat namunalarining xalqaro tavsifini ta’ sis etish to‘g‘risidagi Lokarno bitimiga qo‘shilishi haqida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 1 iyulda Jenevada Diplomatik konferensiya tomonidan qabul qilingan Patent huquqi to‘g‘risidagi SHartnomaga qo‘shilishi haqida”gi qonunlari chiqarildi.

O‘zbekiston hukumati faolligida Orol dengizi va Orol dengizi basseynida ekologik muhitni yaxshilash uchun konsepsiya ishlab chiqildi va bu konsepsiya 1994 yili Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan qabul qilindi va bu haqda Xalqaro konferensiya (1995 yil sentyabr Nukusda) o‘tkazildi va Nukus Dekloratsiyasi qabul qilindi.

YUrtimiz hayotida turli xildagi Milliy dasturlar ishlab chiqilganki, ularning asosiy vazifasi iqtisodiyotimiz asosiy tarmoqlarini texnologik modernizatsiya qilish, eksport potensialini rivojlantirish va O‘zbekistonning dunyo iqtisodiy xamjamiyatiga integratsiyasini amalga oshirishdan iboratdir.

So‘nggi yillarda respublikada mamlakatning innovatsion salohiyatini yanada rivojlantirish uchun kulay shart-sharoitlarni yaratishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga, ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish va uni xar tomonlama ko‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida aholi farovonligini tubdan oshirish va turmush sifatini yaxshilash, jamiyat va davlatni har tomonlama jadal rivojlantirish, mamlakatni modernizatsiya qilish va hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha aniq maqsadlar belgilab olindi.

Ilg'or xorijiy tajriba, jahon fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal innovatsion rivojlantirishni ta'minlash, mavjud muammolarni hal qilish, shuningdek, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar, ilmiy yutuqlarni joriy etishni rag'batlantirishning institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 29 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi PF-5264-son farmoni qabul qilindi

Farmon bilan strategik rejalashtirish tizimini yaratish, davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini amalga kiritish, fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish, investitsiyalarni keng jalb qilish, huquqiy bazani takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ijtimoiy va iqtisodiy hayotning dolzarb sohalariga ilg'or texnologiyalarni faol joriy etish kabi mamlakat innovatsion rivojlanishining asosiy yo'nalishlari belgilandi.

Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi hamda uning davlat va jamiyat qurilishi, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy rivojlanish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohalaridagi faoliyatining asosiy yo'nalishlari nazarda tutildi. Bundan kelib chiqib, Innovatsion rivojlanish vazirligi O'zbekiston Respublikasining innovatsion va ilmiy-texnik rivojlanishi sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi organ etib belgilandi. Vazirlik davlat ilmiy-texnikaviy dasturlari va loyihalarining yagona buyurtmachisi bo'ladi, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha davlat boshqaruv organlari, ilmiy-tadqiqot, axborot-tahlil muassasalari va boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Innovatsion texnologiyalar hisobiga rivojlanishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiquvchi, shartli ravishda "kelajak vazirliklari" deb nomlanuvchi ixtisoslashtirilgan idoralarni tashkil qilish bo'yicha jahon

tendensiyasini qayd etib o'tish lozim. Jumladan, xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishga va uning tuzilmasini tubdan o'zgartirishga, eng avvalo, innovatsion ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish hisobiga uning sifatini va yalpi ichki mahsulotni shakllantirishdagi rolini oshirishga ko'maklashadi; innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etish orqali turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashadi; iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy etish sohasida xizmatlar sohasini tubdan takomillashtirish, eng avvalo, innovatsion ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish hisobiga ularning sifatini va yalpi ichki mahsulotni shakllantirishdagi rolini oshirish; qishloq xo'jaligiga innovatsiyalarni joriy etish sohasida:eng avvalo, mavjud er, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beruvchi "Aqlli qishloq xo'jaligi" konsepsiyasiga asoslangan qishloq; ijtimoiy rivojlanishga innovatsiyalarni joriy etish sohasida, "Aqlli tibbiyot" va "YAgona tibbiyot axborot markazi", "Xavfsiz shahar", "Aqlli shahar" konsepsiyalarini joriy etish vazifalari ko'rsatib utildi.

Faoliyatda bir-birini takrorlashni istisno etish, yagona yondashuvlarni ta'minlash maqsadida 2018 yil 1 yanvardan boshlab Fan va texnologiyalar bo'yicha Davlat komissiyasi, Fan va texnologiyalar bo'yicha Davlat komissiyasi huzuridagi Ilmiy-texnik faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg'armasi, shuningdek, Fan va texnologiyalar agentligi tugatildi.

Tashkil etilgan Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi o'tkazilayotgan tadqiqotlar bo'yicha hisobot berishning shaffof tizimidan foydalangan holda innovatsion g'oyalar va ularni ishlab chiqishni moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbasi hisoblanadi.

Xuddi shuningdek, texnoparklarni tashkil etish maqsadida Fanlar akademiyasi va Oliy attestatsiya komissiyasining faoliyatini tanqidiy o'rganish topshirildi. Farmonda innovatsiyalarni joriy etishning qonuniy asoslarini yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. SHu munosabat bilan, ilmiy va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish prinsiplari hamda qo'llab-quvvatlash shakllarini, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalardan foydalanish

imkoniyatlarini kengaytirishni belgilovchi “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi va “Fan to‘g‘risida”gi qonunlar loyihalari ishlab chiqiladi.

Ushbu farmonni ijro etish yuzasidan 2017 yil 30 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-3416-son qarori qabul qilindi va unga muvofiq vazirlikning tashkiliy tuzilmasi, vazirlik boshqaruv xodimlarining cheklangan soni (82 nafar), markaziy apparati tuzilmasi, vazirlik to‘g‘risidagi nizom, innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi ijro etuvchi direksiyasining tuzilmasi, uning Kuzatuv kengashining tarkibi va innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari, faoliyatini tashkil etish va hisobot berish tartibi, shuningdek, uning rahbarlarining funksional majburiyatlari va javobgarligini belgilovchi Nizomida: Vazirlik va uning markaziy apparati vazifalari va funksiyalari, huquqlari va javobgarligi, Vazirlik rahbarlarining asosiy funksional majburiyatlari, javobgarligi, Vazirlik faoliyatini tashkil etish, faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlari, moliyalashtirish va moddiy-texnik ta‘minlash, uning xodimlari mehnatiga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish, hisobdorligi belgilab berildi.

Innovatsiyaning eng ilgor soxasi xozirgi vaqtda barcha soxalarga, shu jumladan xizmatlar ko‘rsatish soxasida xam axborot kommunikatsiyalari hisoblanmish elektron texnikalarni amaliyotga joriy etish hisoblanadi. Bu iqtisodiyotda rakamli iqtisodiyot, boshqaruvda elektron xukumat, ishlab chiqarishda esa elektron texnika vositalari va boshqalar hisoblanadi. SHuning uchun ovqatlanish va savdoda bularning kullanilishi albatta istemolchilarga xizmat ko‘rsatishni tubdan uzgartirib kulayliklar yaratiladi.

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 apreldagi pq-3674-sonli « O‘zbekiston respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida ilg‘or

texnologiyalar markazini tashkil qilish to'g'risida qarori ga asosan: ilmiy va innovatsion faoliyatning rivojlanishini faollashtirish, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning yanada keng integratsiyasini ta'minlash, yangi bilimlarni yaratish va ko'llash, ilg'or innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni ishlab-chiqish va joriy etishda ilmiy-innovatsion salohiyatdan va ilmiy laboratoriya bazasidan samarali foydalanish bo'yicha sharoitlar yaratish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar Akademiyasi xamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining «YUqori texnologiyalar o'quv-eksperimental markazi» Davlat korxonasini O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilg'or texnologiyalar markaziga aylantirildi. Jumladan unga, xalqaro darajada patentlash imkoniyatiga ega bo'lgan ilmiy hajmdor va ilg'or texnologiyalarni yaratish, yangi innovatsion mahsulotlarning namunalarini maketlashtirish, modellashtirish, tayyorlashda va ularni tekshirishda ishtirok etish; mahalliy va xorijiy ilmiy va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda, shu jumladan innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarish, texnologiyalarning transferi va intellektual mulk ob'ektlarini kommersializatsiyalash masalalari yuzasidan ilmiy konferensiyalar, seminarlar, treninglar va mahorat darslarini tashkillashtirish belgilangan.

Mazkur holatlar innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni tashkil qilish sohasida davlat boshqaruvining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishni talab qiladi.

YUqorida keltirilgan manbalardan ma'lum bo'ldiki, O'zbekiston so'nggi yillarda intellektual mulk bo'yicha faoliyati samaradorligini oshirishga, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishda, mamlakatni demokratik yangilashda fanning rolini kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelmoqda. Zamonaviy sanoat ishlab chiqarish, energetika, qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari, fan va texnikaning g'oyat muhim ilmiy va texnologik muammolarni hal qilishga qaratilgan fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlar sohasidagi 25 davlat ilmiy-texnika dasturi bo'icha ishlar olib borilmoqda.

Ilmiy-tadqiqot muassasalarini bazaviy ta'minlash tizimidan ilmiy-texnik vazifalarni hal qilishga qaratilgan maqsadli loyihalarni moliyalashga o'tish ilmiy jamoalar ijodiy faolligini rag'batlantirilishini, ularning sa'y-harakatlari real yakuniy natijalarga erishishga safarbar qilinishini, fan va texnika taraqqiyotining dolzarb masalalari hal qilinishini, ularning ishlab chiqarishga joriy etilishini ta'minladi. Ilmiy-texnika, ayniqsa intellektual mulkni muhofazasi sohasida xalqaro aloqalar jadal rivojlanmoqda. Bunday natijalar, albatta ilmiy izlanish ishlari yurtimizda davlat tomonidan to'g'ri yo'naltirilganligini natijasidir.

YUqorida qayd etilgan barcha tashkiliy-amaliy ishlar O'zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirilishi bo'yicha qilingan muhim ishlar hisoblanib, yurtimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shadi. Pirovard natijada, O'zbekistonni rivojlantirishning innovatsion yo'li iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi, mamlakat barqarorligi va aholi farovonligini ta'minlashning omili bo'lishiga ishonamiz.

2. Samarqand viloyatida umumiy ovqatlanish korxonalarini modernizatsiyalashning innovatsion holatini tadqiqoti

Modernizatsiya holati birinchi navbatda korxonaning innovatsion faoliyatidan kelib chiqadi. Chunki uning natijasida olinadigan ishlab chiqarish mahsuloti (xizmat), uning rivojlanganlik darajasini belgilaydi.

Ma'lumki, innovatsiya deganda modernizatsiyaning bosh omili (ingl.innovation yangilik kiritish, novatorlik) yangi jarayon, mahsulot yoki xizmatning "yangiligiga berilgan investitsiya" natijasida amaliyotga tadbig'ini tushunamiz. SHuning uchun modernizatsiyalashdagidek innovatsion jarayonning (faoliyati) rivojlanishiga ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, intellektual va texnik - texnologik va boshqa omillar ta'sir etadi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarining samaradorligini oshirish undagi ishlab chiqarishni yangi innovatsion yutuqlar asosida jadallashtirish va iqtisodiyot tarkibini takomillashishiga bog'liq bo'ladi. Bunday vazifalarni bajarishda uning

moddiy-texnikaviy bazasini rivojlantirish va mavjud asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligini oshirish o'ta muhim hisoblanadi.

Korxonalar iqtisodiyotining rivojlanishi uning modernizatsiyalash holatiga bog'liqligini yuqorida ko'rib chiqdik.

Rossiya ilmiy izlanish instituti tomonidan korxonalarni modernizatsiyalash uchun uning innovatsion faoliyatiga qarshilik ko'rsatuvchi va ularning rivojlanishiga yordam beruvchi omillarini aniqlash omillar guruhi, innovatsion faoliyatga to'sqinlik etuvchi omillar va innovatsion faoliyatni rivojlantiruvchi omillarni ishlab chiqishgan. Ushbu omillarni takomillastirgan shaklda quyidagi 1-jadvalda keltiramiz.

Jadvalda keltirilganlardan ko'rinyaptiki, haqiqatdan ham ular tarkibida asosiy o'rinni iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, intellektual va texnik-texnologik va boshqalar o'rin egallaydi.

Demak, korxonalar tadbirkorlik faoliyati amaliyotida modernizatsiya innovatsiyaning tadbirida, ularga qanday omillar qarshilik ko'rsatishi va qaysilarini jadallashtirishimizni bilishimiz uchun ularni amaliyotda sinash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz

1-jadval

Korxonalar innovatsion faoliyat (jarayon)ga ta'sir etuvchi asosiy omillar

Omillar guruhi	Innovatsion faoliyatga to'sqinlik etuvchi omillar	Innovatsion faoliyatni rivojlantiruvchi faktorlar
Iqtisodiy, texnikaviy	Innovatsion loyixalarni moliyalashtirishda mablag'larning etishmasligi, moddiy va ilmiy texnika bazaning etishmasligi, joriy ishlab chiqarish bo'yicha kizikishlarning ustunligi, zahira quvvatlarining kamligi	moddiy –texnik va moliyaviy zahiralarning, zaruriy xujalik va ilmiy-texnik infratuzilmalarning borligi
Siyosiy, huquqiy	antimonopol, soliq, amortizatsiya, patent litsenziyalash qonunlari tomonidan cheklanish.	Innovatsion faoliyatni kengaytirish bo'yicha qonunlarning chora tadbirlari (ayniqsa imtiyozlar), innovatsiyaning

		davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi
Ijtimoiy psixologik madaniy	Xodimlar statusini o'z-gartirish, yangi ish izlashga majbur bo'lish yangi ishni qayta rejalashtirish, fao-liyat turini qayta dasturlash, ahloq normalari va shakl-langan udumlarning buzili-shi mavhumlikdan qo'rquv, omadsizlik uchun jazolanish-dan qo'rqish kabi oqibatlariga olib keluvchi o'zgarishlarga qarshilik qilish	Innovatsion jarayon-larda qatnashuvchilarni ma'naviy rag'batlantirish, umumiy tan olish, o'z-o'zini namoyon qilishda imkoniyatlar bilan ta'minlash. Mexnat jamoasida psixologik muhitni yaratish.
Tashqiliy-boshqaruv-li	Qisqa muddatda o'z-o'zini qoplashga yo'naltirish, innovatsion faoliyat bo'yicha qatnashchilarning qiziqish-lari bilan moslashtirish-ning murakkabligi rejalash-tirishda talabchanlik	Tashkiliy tuzilmaning egiluvchanligi, boshqarishda demokratik uslubga yondashish, gorizontaal axborot oqimining ustuvorligi, o'z o'zini rejalashtirish, korrektirovkalarni o'tkazish, avtonomiya, maqsadli ishchi gu-ruhlarni shakllantirish

SHuning uchun, biz jadvalda keltirilgan faktorlarning O'zbekiston korxonalarini bo'yicha, jumladan, Samarqand viloyat umumiy ovqatlanish korxonalarini bo'yicha tahlilini olib bordik va quyidagi natijalarga erishdik.

SHuning uchun biz Samarqand viloyat umumiy ovqatlanish korxonalarining modernizatsiya innovatsion holatini va unga ta'sir etuvchi faktorlarini aniqlashda asosiy e'tiborni iqtisodiy, ishlab chiqarish (texnik texnologik) va boshqa omillarga qaratdik.

Samarqand viloyat umumiy ovqatlanish korxonalarining tanlab olingan 191ta umumiy ovqatlanish korxonalarining (restoran, oshxona, kafe va choyxonalar) innovatsion holatini aniqladik.

Innovatsion holatni aniqlashda biz (k.o'kituvchi R.J. Kurbonova, mag.R.Atxamov, M.Atadjanova bilan) so'rov metodini qo'lladik. Barcha korxonalariga (respondentlarga) korxonalar (tashkilot) modernizatsiya innovatsion

holatiga potensial salbiy ta'sir etuvchi omillar ko'rsatilgan so'rov anketasi berilib so'rov o'tkazildi. So'rov anketasida ko'rsatilgan omillarning xar biriga respondentlar tomonidan to'rt xil javobdan: asosiy, ahamiyatli; ahamiyatsiz; javob berishga qiynalaman degan javoblardan biridir. So'rov anketasida keltirilgan innovatsion baholashning bunday sifat baholash shkalasi universal xarakterga ega bo'lib, so'rovga qatnashgan barcha qatnashchilar qiynalmay javob berishi mumkin. SHu bilan birga korxonalar qaysi tashkilotga qarashli ekanligidan qat'iy nazar, bir xilda oson javob berish mumkin. So'rov shkalasining to'rt darajaligi javob beruvchining maksimum - yuqori darajalarni, minimum- pastki darajani qamrab oladi.

So'rovga jami 17 faktorni uch guruxga : iqtisodiy (6ta faktor), ishlab chiqarish (6 ta faktor) va boshqa turdagi (5 ta faktor)lar ko'rildi. Samarqand viloyati umumiy ovqatlanish korxonasi innovatsion faoliyatiga to'sqinlik etuvchi faktorlar 2019 yili holati bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

Jadvalda keltirilgan javoblar shuni ko'rsatyaptiki, ko'pchilik korxonalar iqtisodiy faktorlardan «o'z mablag'ining innovatsion faoliyatga etishmasligi»

So'rov natijalarini tahlil etishda biz A.Guseev takdim etgan innovatsion faoliyatga qarshilik ko'rsatayotgan faktorlar darajasidan salmoqlik koeffitsienti bilan ranjirovkalash metodini qo'lladik. Buning uchun agar faktor «asosiy» deb xarakterlansa, unga maksimal salmoqlik koeffitsientini 1 ga teng deb olinadi, «ahamiyatli» deganda 0,6 koeffitsient, ya'ni 0,5dan katta bo'lib maksimal 1 ga yaqin hisoblanadi.

Agar baholash «ahamiyatsiz» deyilsa, unga 0,2 koeffitsienti tenglashtiriladi. Oxirgisi «javob berishga qiynalaman» bahosiga 0 minimal koeffitsienti beriladi.

Samarqand viloyat umumiy ovqatlanish korxonasini innovatsion faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi faktorlar (2019 yil bo‘yicha)

Omillar	Innovatsion faoliyatga to‘sqinlik etuvchi faktorlar baholash darajasi			
	asosiy	ahamiyatli	ahamiyatsiz	Javob berishga qiyinalaman
Iqtisodiy				
O‘z mablag‘ining etishmasligi	106	34	18	33
Davlat tomonidan moliyaviy yordamning etishmasligi	50	38	22	81
YAngi mahsulotlarga to‘lov iste‘molining kamligi	23	23	24	121
YAngi texnika kiritish yuqori qiymatligi	82	36	31	42
Iqtisodiy xavf-xatar yuqori	67	40	44	40
YAngilikning uzok muddatga koplanishi	40	28	20	103
Ishlab chiqarish (texnik texnologik)				
Tashkilotning past innovatsion faoliyati	40	60	70	21
Malakali kadrlarning etishmasligi	66	40	40	45
YAngi texnologiyalar bo‘yicha axborotning kamligi	98	25	28	40
Sotish bozori haqidagi informatsiyaning kamligi	93	34	29	35
Korxonaning yangilikni qabul qilish qiyinligi	69	22	80	20
Ilmiy tashkilot va boshqa korxonalar bilan aloqaning kamligi	60	83	20	28
Boshqa faktorlar				
Iste‘molchining innovatsion mahsulotga talabining kamligi	50	80	20	41
Innovatsion faoliyatni qo‘llab quvvatlovchi normativ xujjatlar va qonunlarning etishmasligi	60	70	30	31
Innovatsion jarayon muddatining noaniqligi	40	60	80	11
Innovatsion infrastrukturaning rivojlan-maganligi	40	63	75	13
Texnologiyalar bozorining rivojlanmaganligi	70	50	40	31

Xar bir faktorni baholash uchun faktor qarshilik indeksi hisoblanadi. Indeksni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalandik:

$$I = \left[\frac{\sum_{i=1}^n (X_i \times Y_i)}{\sum_{i=1}^n X_i} \right] \times 100\%$$

Bu erda: I – qarshilik indeksi; n-innovatsion faoliyatga bergan baholash javobining soni (bizda n=4); i-javob variantining tartib nomeri; X_i - respondentlar soni (ivariantga javob berganlar); Y-salmoqlik koeffitsienti (i-variantga javob) (Y=0,1; 0,6; 0,2; 0). SHunday qilib, I – indeksi 0 dan 100%gacha normallashtirilib, 100% maksimal qarshilik faktori hisoblanadi. So‘rovda 17 faktor qatnashganligi uchun biz o‘rtacha kiymatini topamiz.

Samarqand viloyat umumiy ovqatlanish korxonolari innovatsion faoliyatiga qarshilik ko‘rsatuvchi faktorlarning baholanishidagi o‘rtacha qarshilik indeksi – I hisoblanib, 2018 va 2019 yil uchun .3.- jadvalda keltirilgan.

